

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARINING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASOSSIZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

PARTICIPATION OF AUXILIARY BODIES IN THE LEGISLATION ACTIVITIES OF THE LEGISLATIVE CHAMBER OF THE OLIY MAJLIS

Sharipov Firdavs Kholnazarovich,

Member of the Legislative Chamber of the
Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan,
independent researcher

Abstract. This article analyzes the significance of auxiliary bodies in the legislative activities of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan and proposes ways to improve them. Specifically, it examines the work of structures such as the Commission on Normative Legal Terminology and the institution of the deputy assistant, as well as the role of civil society institutions in the legislative process. The study identifies practical problems encountered in law-making and puts forward concrete proposals for their resolution.

Keywords: Legislative Chamber, legislative, civil society, draft laws, commission, deputy.

OLIJ MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI

Sharipov Firdavs Xolnazarovich,

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi deputati,
mustaqil izlanuvchi

ORCID: <http://orcid.org/0009-0006-5732-0293>

e-mail: firdavs1983xxx@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi faoliyatida unga ko'maklashuvchi tuzilmalarning ahamiyati va ularni takomillashtirish yo'llari tahlil qilingan. Xususan, Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi faoliyatida ko'maklashuvchi tuzilmalar, jumladan, Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi va deputat yordamchisi instituti faoliyati, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining qonun ijodkorligidagi roli o'rganilgan. Qonun ijodkorligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliyotda uchrayotgan muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish yuzasidan aniq takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Qonunchilik palatasi, qonun ijodkorligi, fuqarolik jamiyati, qonun loyihalari, komissiya, deputat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N76>

Kirish. So'ngi yillarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi davlat boshqaruvi, sud-huquq, ijtimoiy-iqtisodiy va tashqi siyosat sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asosini yaratishda faol ishtirok etib kelmoqda. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining samarali qonun ijodkorligi faoliyatida esa unga ko'maklashuvchi tuzilmalar va yordamchi (tahlil) organlarining ishtirokisiz tasavvur etish qiyin. Shu sababli, quyi palataning ko'maklashuvchi tuzilmalari faoliyatini doimiy takomillashtirib borish orqali ularning faoliyatini samaradorlikka yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Maqolani yozish jarayonida qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli tahlil va qonuniy tartib-taomillarning tahlili kabi metodlardan foydalanildi. Ilmiy-nazariy adabiyotlar, milliy qonunchilik hujjatlari o'rganilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi. Shu bilan birga, tahlil jarayonida mantiqiy qiyoslash, xulosa chiqarish va umumlashtirish usullari qo'llandi. Bu esa qonun ijodkorligining nazariy va amaliy asoslarini chuqurroq ochib berish imkonini yaratdi. Bundan tashqari, maqolada nazariy yondashuv asosida aniq huquqiy normalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar asoslab berildi.

Muhokama va natijalar. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalarni tahlil qilgan holda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qonun ijodkorligi faoliyatida ko'maklashuvchi tuzilmalardan biri sifatida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Normativ-huquqiy atamalar komissiyasini ham ko'rsatishimiz mumkin.

Sababi, ushbu Komissiya quyi palataning qonun ijodkorligi jarayonida eng asosiy masalalardan biri bo'lgan qonun loyihalarida normativ-huquqiy atamalar o'z mazmuniga muvofiq yagona shaklda va to'g'ri qo'llanilishini, adabiy til qoidalari va normalari talablariga hamda yuridik, texnik va boshqa maxsus qoidalarga aniq rioya etilishini ta'minlash maqsadida tuziladi.

Ta'kidlash kerak, Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining tegishli Qarori bilan tasdiqlanadigan Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi to'g'risidagi Nizom asosida faoliyat olib boradi [1]. Komissiya Qonunchilik palatasining qarori bilan deputatlar orasidan Komissiya raisi, rais o'rinbosari va a'zolaridan iborat tarkibda quyi palataning vakolatlari muddatiga tuziladi.

Komissiyaning asosiy vazifasi:

qonun loyihalarida adabiy til qoidalari va normalariga rioya etilishini ta'minlash;

qonun loyihalarida normativ-huquqiy atamalarning qonun hujjatlarida qabul qilingan ma'nosiga muvofiq holda, turlicha izohlash ehtimolini istisno etadigan tarzda yagona shaklda va to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash;

qonun loyihalarida normativ-huquqiy atamalarni qo'llash izchilligini saqlash;

tegishli ma'noni anglatuvchi so'zlarni qonun loyihalarida bir xil shaklda qo'llash;

boshqa tillarning qoidalari tufayli kelib chiqishi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklarni qonun normalariga ziyon yetkazmagan holda tahrir qilish hisoblanadi.

Mazkur Komissiya ushbu vazifalarni amalga oshirishda "Davlat tili haqida"gi, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi hamda "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, shuningdek Qonunchilik palatasi faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Komissiya Nizomida Komissiya taqdim etilgan qonun loyihalarini o'z vaqtida ko'rib chiqishi, ular yuzasidan o'z xulosalarini bayon etishi hamda qonun loyihalarida aks ettirishi shartligi belgilangan.

Chunonchi, Qonunchilik palatasining to'rtinchi chaqirig'i (2020-2024-yillar) davomida komissiya tomonidan 100 dan ortiq yig'ilishi o'tkazilib ikkinchi o'qishga tayyorlangan 107 ta yangi qonun loyihasi va 20 ta yangi tahrirdagi qonun loyihasi, shuningdek ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi 173 ta qonun loyihasi, shu jumladan 51 ta jamlanma qonun loyihasi ko'rib chiqilib, ularning normalari hamda qoidalarining mazmuni va tahririga, ularda yuridik texnika hamda boshqa maxsus qoidalarga

rioya etilishiga, matnlarning uslubiy va grammatik jihatdan to'g'ri qo'llanilishiga doir 1390 dan ortiq taklif berilgan hamda bu takliflar tegishli qo'mitalar tomonidan qabul qilingan [2].

Ushbu raqamlar ham ko'rsatib turibdiki, Komissiya quyi palata faoliyatining eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblangan qonun ijodkorligi ishini samarali tashkil etishda ko'maklashuvchi tuzilma sifatida alohida o'ringa ega.

Komissiyaning zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini ta'minlash maqsadida uning huzurida Qonunchilik palatasi Devoni tegishli bo'limlarining xodimlaridan iborat Komissiya faoliyatiga ko'maklashish bo'yicha ishchi guruh tashkil etiladi. Shuningdek, Komissiyaning ishchi organi Qonunchilik palatasi Devonining Lingvistik ekspertiza, tarjima va tahririyat bo'limidir.

E'tiborli jhati, Komissiya muhokamasidan o'tgan qonun loyihasiga normativ-huquqiy atamalarga doir o'zgarishlarni Komissiya hamda mas'ul qo'mitaning roziligisiz kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

Komissiya faoliyatining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, qonun tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan Qonunchilik palatasiga kiritilayotgan qonun loyihalarida, aksariyat hollarda, adabiy til qoidalari va normalari talablariga rioya etilishi, atamalarni qo'llash izchilligini saqlab qolish hamda normalarning sodda va ravon aks ettirish masalalariga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti.

Buning uchun Qonunchilik palatasida tayyorlanayotgan qonun loyihalarining harakatlanish jadvaliga qat'iy rioya etish hamda Lingvistik ekspertiza va tahririyat bo'limi hamda Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi uchun yetarli muddat ajratish chora-tadbirlarini ko'rish zarur bo'ladi.

Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi faoliyatining tahlili hamda uning an'anaviy ravishda 2000-yildan buyon tashkil etilib kelayotgani shuningdek, ushbu Komissiyaning vazifalari Qonunchilik palatasi qonun ijodkorligi faoliyatida muhim o'rinni egallashidan kelib chiqib, Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi jamoatchilik asosida emas balki xuddi qo'mitalar kabi 7 nafar deputatdan iborat tarkibda doimiy asosda faoliyat yuritishini va uning huquqiy maqomini quyi palata faoliyatiga oid qonunlarda belgilashni taklif etamiz. Bizningcha, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to'g'risida"gi Qonunga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchani kiritish kerak:

"8-modda. Qonunchilik palatasining komissiyalarini tuzish

Qonunchilik palatasi muayyan vazifalarni bajarish uchun komissiyalar tuzishi mumkin (bundan ushbu Qonuning 8¹-modda mustasno).

8¹-modda. Normativ-huquqiy atamalar komissiyasini tuzish

Qonunchilik palatasi tomonidan uning deputatlari orasidan palataning vakolatlari muddatiga rais, uning o'rinbosari va a'zolaridan iborat tarkibda doimiy faoliyati olib boruvchi Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi tuziladi.

Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari Normativ-huquqiy atamalar komissiyasining tarkibiga saylanishi mumkin emas.

Normativ-huquqiy atamalar komissiyasining a'zolari, qoida tariqasida, yetti nafardan oshmasligi kerak.

Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi raisi, uning o'rinbosari va komissiya a'zolari lavozimlari deputatlarning qaysi partiyaga mansubligini hamda saylov yakunlari bo'yicha olingan deputatlik o'rinlarini inobatga olgan holda yaxlit (umumiy)

qaror bilan belgilanadi. Komissiya raisi, uning o‘rinbosari va komissiya a‘zolari lavozimlariga nomzodlar ko‘rsatish yuzasidan takliflarni fraksiyalarning rahbarlari o‘zaro kelishgan holda kiritadilar.

Qonunchilik palatasi Normativ-huquqiy atamalar komissiyasining raisi, uning o‘rinbosari va komissiya a‘zolari palata majlisida Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan saylanadi.

Qonunchilik palatasi Normativ-huquqiy atamalar komissiyasining raisi, uning o‘rinbosari, shuningdek komissiya a‘zolari saylangani to‘g‘risida Qonunchilik palatasi qarorlar qabul qiladi.”

Nazarimizda, Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi faoliyatida unga ko‘maklashuvchi tuzilmalar qatoriga deputat yordamchisi institutini ham keltirish maqsadga muvofiq.

Ma’lumki, 2021-yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatining saylov okrugidagi yordamchisi instituti joriy etildi [3]. Deputat yordamchisi xalq vakillarining o‘z saylovchilari bilan doimiy aloqada bo‘lib turishini ta’minlash orqali ko‘rib chiqilayotgan qonun loyihalariga ularning takliflarini o‘z deputatiga yetkazish orqali qonunlarni takomillashuviga xizmat qilmoqda.

2022-yil 20-mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining mahalliy Kengashlar bilan hamkorligini kuchaytirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» tasdiqlandi [4]. Mazkur hujjatda «Qonunchilik palatasi deputati – uning yordamchisi – mahalliy Kengash deputati» tizimi asosida qonun loyiholari bo‘yicha mahalliy Kengash deputatlarining fikr va takliflarni olish amaliyotini yo‘lga qo‘yish kabi muhim vazifalar belgilandi.

Bugungi kunda shakllangan amaliyotdan kelib chiqib, tegishli qonun hujjatlarida deputatning yordamchisi vazifalari qatoriga saylov okrugi hududida qonun loyiholari bo‘yicha saylovchilarning, mahalliy Kengash deputatlarining fikr va takliflarini deputatga yetkazilishining huquqiy asosini belgilab qo‘yish lozim.

Fikrimizcha, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunining 94-moddasi beshinchi qismiga beshinchi xatboshi sifatida quyidagi qo‘shimchani kiritish maqsadga muvofiq:

“94-modda. Deputatning yordamchisi

Deputatning yordamchisi:

saylov okrugi hududida qonun loyiholari bo‘yicha saylovchilarning, mahalliy Kengash deputatlarining fikr va takliflarni deputatga yetkazadi;”

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 18-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining saylovdan keyingi birinchi majlisidagi nutqida qonun ijodkorligi borasida milliy tajriba hamda dunyodagi ilg‘or tendensiyalarga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo‘mitalari faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari bilan muloqotni kuchaytirish taklifi ilgari surildi [5].

Prezidentimizning mazkur taklifini qo‘llab-quvvatlagan holda uning bir qancha ijobiy jihatlarini ta’kidlaymiz. Birinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining qonun ijodkorligi jarayonida ishtiroki kengayadi, jamoatchilik uchun yanada keng yo‘l ochiladi, ikkinchidan, quyi palata bilan ijtimoiy sheriklik yanada mustahkamlanadi, uchinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlarining huquq va manfaatlari qonun hujjatlarida keng ifoda etiladi. Eng muhimi, bu

jihatlar fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyat boshqaruvida bevosita ishtirok etishi uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Bildirilgan ushbu tashabbusni o'z vaqtida hayotga tatbiq qilish, shuningdek qonun ijodkorligi faoliyatining sifati va samaradorligini yanada oshirish hamda keng jamoatchilikning qonun loyihalarini ishlab chiqishdagi ishtirokini kengaytirish maqsadida **Qonunchilik palatasidagi qo'mitalar huzurida fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat Jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish va tartibga solish bo'yicha Nizom ishlab chiqib quyi palata qarori asosida qabul qilish taklifini ilgari suramiz.**

Unda Jamoatchilik kengashi a'zolarining soni, tarkibi, hamkorlik yo'nalishlari, qo'mitaning qonun ijodkorligi faoliyatiga jalb etish tartibi kabi masalalar o'z aksini topishi Jamoatchilik kengashlari faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Qonunchilik palatasining Kengashi Qaroriga ko'ra, Jamoatchilik kengashlari tarkibi asosan ekspertlardan iborat bo'lishi nuqtai nazardan bir-birini takrorlovchi tuzilma faoliyati yo'lga qo'yilmasligi hamda chalkashliklarni oldini olish maqsadida **qo'mitalar huzuridagi Ekspertlar guruhi faoliyatini tugatish maqsadga muvofiq.**

Yuqoridagi jihatlardan kelib chiqib, qo'mitalar huzuridagi Jamoatchilik kengashlarini Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi faoliyatida unga ko'maklashuvchi institutlar qatoriga qo'shish mumkin.

Alohida ta'kidlash kerakki, ushbu Jamoatchilik kengashlarining salohiyati va imkoniyatidan unumli foydalanilishi zarur. **Buning uchun Qonunchilik palatasi qonun ijodkorligi faoliyatiga jalb qilingan jamoatchilik vakillarini rag'batlantirish mexanizmini amaliyotga joriy qilinishi o'zining samarasini beradi.** Mazkur masala bo'yicha xorijiy tajribaga yuzlanadigan bo'lsak, Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarda qonun ijodkorligiga bevosita tashqi ekspertlarni pullik asosda jalb qilish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Tashqi ekspertlar xizmatidan foydalanish bo'yicha Germaniya Bundestagingining Ilmiy-tadqiqot xizmati amaliyoti e'tiborga molik [6].

Bu o'z navbatida quyi palataning qonun ijodkorligi faoliyatiga jamoatchilikning ishtirokini yanada kengaytirishga, shuningdek xalqchil qonun loyihalarining ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi, deputati yordamchisi va Jamoatchilik kengashlarini Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qonun ijodkorligi faoliyatida ko'maklashuvchi yordamchi subyektlar sifatida ko'rsatishimiz mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tadqiqot ishi natijasida keltirilgan takliflar Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qonun ijodkorligi faoliyatida qonun loyihalarining sifatini oshirish, ijtimoiy sheriklikni mustahkamlash va qonunlarning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг Қарори. 2024 йил 17 декабрь, 192-V-сон. <https://lex.uz/ru/docs/7307113>.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining joriy arxivi.
3. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 15.10.2021 й., 03/21/722/0960-сон.
4. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталари Кенгашларининг 2022 йил 20 майдаги 2123-IV/КҚ-348-IV-сонли Қўшма қарори. <https://lex.uz/docs/6063569>.

-
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
<https://president.uz/uz/lists/view/7711>.
 6. Д.А. Козлов, Информационно-аналитическое обеспечение законодательной деятельности в Российской Федерации, диссертация, Коломна, 2005, с 45.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).